XALQ DEPUTATLARI CHIRCHIQ SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 10 - yanvar VI-76-1-10-150-K/23 Chirchiq shahar hokimligi

Chirchiq shahrining 2023-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida 2022-yil 22-dekabrda va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatida 27-dekabrda qabul qilingan “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni bilan 2023-yil budjet parametrlari ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2022-yil 24-oktabrdagi 02-958-sonli va Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrdagi 01/20-32/1020-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari va xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023 yil 6-yanvardagi VI-67-1-10-0-K/23-sonli qaroriga asosan xalq deputatlari Chirchiq shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Mazkur qonunga muvofiq, Chirchiq shahar mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 103 723,7 mln.so‘m va xarajatlari 154 175,6 mln.so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.2023-yil uchun Chirchiq shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 1 va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4.Viloyat budjetidan mahalliy budjetga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab

qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5.2023-yil uchun Chirchiq shahar umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6.2023-yil uchun shaharning shahar budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 454,5 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

7.Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga
0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 5 va 6 ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

8.2023 yil uchun Chirchiq shahrining shahar budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 910,6 mln.so‘m deb belgilansin.

9.O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a)shahar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

-jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

-jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

-jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

-qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

-davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b)viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

-benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

-aylanmadan olinadigan soliq;

-yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

-yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

-suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 63 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat budjeti hamda shahar budjeti o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

v)Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq shahar mahalliy budjetlariga o‘tkazib beriladi.

10.O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 409-sonli Qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a)"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida «Ochiq budjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b)Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v)tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi.

g)“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

11.Shahar hokimligi moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (J.Raxmonov), shahar moliya bulimi (G’.Hamidov), shahar davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Nazarov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

-tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirishini;

-mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

-budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

-budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

-mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

-budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12.Shahar davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Nazarov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

13.Chirchiq shahar Majburiy ijro byurosi (A.Nurmatov), shahar davlat soliq

inspeksiyasi (Sh.Nazarov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

14.Chirchiq shahar hokimligi Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo’limi (D.Jo‘raboev), jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq inspeksiyasiga amaliy yordam ko‘rsatsin.

15.Chirchiq shahar xususiylashtirishga ko‘maklashish markazi (F.Alimjanova), bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Toshkent viloyat hududiy boshqarmasi (L.Ataxodjayev) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “e-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

16.Chirchiq shahar Moliya bo‘limi (G‘.Xamidov) barcha mahalliy budjetdan moliyalashtiradigan budjet tashkilotlarida :

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har chorak yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

17.Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

18.Shahar hokimligi:

-shahar budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, shahar xalq deputatlari, Yoshlar ishlari agentligi, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

19.Shahar hokimligi moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (J.Raxmonov), xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati, shahar davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Nazarov) va tegishli tashkilot rahbarlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

20.Shahar hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

21.Shahar hokimligi matbuot xizmati:

mazkur qaror “Chirchiq tongi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22.Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

23.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (O'.Tadjibayev) va ijrosi shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (J.Raxmonov) zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Chirchiq shahar Kengashi raisi o'rinbosari



R.X.Dastirov

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2023 yil 10 yanvardagi
VI-76-1-10-150-K/23-son qaroriga
1-ilova

2022-YIL UCHUN TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ SHAHAR BO'YICHA MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINING REJA KO'RSATKICHLARI

Daromad turlari		**Summa ming so'm**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	8 163 809
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	10 077 661
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	26 908 030
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	3 130 000
5	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizasiya qilishdagi aksiz solig'i	1 650 150
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 307 186
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 162 701
6	Yuridik shaxslar yer solig'i	1 590 424
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	7 518 590
7	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	1 151 317
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	7 242 143
9	Davlat boji	0
10	Jarimalar	0
11	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	0
9	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	862 114
10	Yig'imlar	0
11	Xususiylashtirish	0
12	Boshqalar	0
Jami		**76 764 125**

	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'i tushumlaridan tegishli ravishda o'tkazib beriladigan daromad	**26 959 605**
13	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	10 906 542
14	Mobil aloqa xizmati	4 678 272
15	Tamaki mahsulotlari aksiz solig'i	11 374 791
Jami daromad		**103 723 730**

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2023 yil 10 yanvardagi
VI-76-1-10-150-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023-YIL UCHUN TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ SHAHAR BO'YICHA MAHALLIY BUDJET XARAJATLARINING REJA KO'RSATKICHLARI

Ko'rsatkichlar		**Miqdori** (ming so'm)
	Xarajatlar - jami	**154 175 655**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**109 292 844**
1.1	**Maorif**	30 460 051
	- maktabgacha ta'lim	13 364 868
	- umumiy ta'lim	17 095 183
1.2	**Sog'liqni saqlash**	60 561 639
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	7 581 497
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 697 315
	- sport	5 884 182
1.4	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar va kompensasiyalar	10 168 696
1.5	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoyi-moddiy yordam paketi"	102 800
1.6	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	418 161
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**14 683 673**
2.1	Obodonlashtirish	12 573 518
2.2	Veterinariya qo'mitasi	394 338
	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 715 817
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**18 252 096**
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	18 252 096

4	Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarini saqlash	3 220 118
5	Zaxira jamg’armasi	1 454 487
6	Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi	7 272 437

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2023 yil 10 yanvardagi
VI-76-1-10-150-K/23-son qaroriga
3-ilova

SHAHAR BUDJETIGA 2023-YILDA VILOYAT BUDJETIDAN AJRATILADIGAN TARTIBGA SOLUVCHI BUDJETLARARO TRASFERT MIQDORI

Shahar nomi	**Miqdori** (ming so‘m)
Chirchiq shahri	50 451 925

Xalq deputatlari Chirchiq shahar Kengashining
2023 yil 10 yanvardagi
VI-76-1-10-150-K/23-son qaroriga
4-ilova

UMUMDAVLAT SOLIQLARIDAN CHIRCHIQ SHAHAR MAHALLIY BUDJETIGA AJRATMALAR ME’YORI

T/r	Shahar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq hamda Bo‘stonliq tumani bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	Chirchiq shahri	10	10	5	5	5	50	70	100

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2023 yil 10 yanvardagi
VI-76-1-10-150-K/23-son qaroriga
5-ilova

QISHLOQ XO‘JALIGIGA MO‘LJALLANMAGAN YERLAR BO‘YICHA CHIRCHIQ SHAHAR KESIMIDA YER SOLIG‘I STAVKALARI UCHUN 2023 YILDA BELGILANGAN KOEFFITSIENTLAR

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (so‘mda)
1	A.Temur MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
2	Adolat MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
3	Axmad Yassaviy MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
4	Baxor MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
5	Baxt MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
6	Birlik MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
7	Bobur MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
8	V.Xaydarov MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
9	Galaba MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
10	Gulzor MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
11	Guliston MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
12	Dustlik MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
13	Yoshlik MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
14	Ikbol MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
15	Istiklol MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
16	Iftixor MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
17	Ishonch MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
18	Kabutar MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
19	Kamalak MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
20	Kamolot MFY	1.20	55 440	1.10	457.38

21	Kimyogarlar MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
22	Kuyosh MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
23	Lola MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
24	Madaniyat MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
25	Ma‘rifat MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
26	Mir Alisher MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
27	Mirgolib MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
28	Muruvvat MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
29	Navbaxor MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
30	Navruz MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
31	Nur MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
32	Semrug MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
33	Tinchlik MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
34	Turon MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
35	Ulugbek MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
36	Umid MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
37	X.Maksudov MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
38	Xayot guli MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
39	Xamza MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
40	Xumo MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
41	Chinor MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
42	Shark MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
43	Shodlik MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
44	Yulduz MFY	1.20	55 440	1.10	457.38
45	Yangi O'zbekiston MFY	1.20	55 440	1.10	457.38

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2023 yil 10 yanvardagi
VI-76-1-10-150-K/23-son qaroriga
6-ilova

YURIDIK SHAXSLAR BO‘YICHA MOL-MULK SOLIQLARI UCHUN QO‘LLANILADIGAN MUTLOQ MIQDORI

T/r	Shahar nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘m)
1	Chirchiq shahri	1,00	1 000 000,0